
Sayyor qabul va targ'ibot uchrashuvi bo'lib o'tdi

Aholi murojaatlarini joyiga borgan holda o'rganish, muammolarni manzilli hal qilish maqsadida Rishton tumani hokimi, 1-Sektor rahbari Sufhonjon Solievning sayyor qabuli "To'raobod" va "Quyiv Avazboy" mahallalarida bo'lib o'tdi. Sayyor qabulda tuman Xalq qabulxonasi mudiri, tuman hokimining o'rinbosarlari, aloqador korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi. Aholi tomonidan qilingan murojaatlarning har biri tegishlilik bo'yicha shu joyning o'zida mas'ullar ishtirokida o'rganib chiqildi. Ayrim murojaatlarga shu yerning o'zida ijobiy yechim topilgan bo'lsa, ayrimlariga mas'ullar tomonidan huquqiy tushuntirishlar berildi. Ijrosi muddat va qo'shimcha o'rganish talab qiladigan murojaatlar mas'ullarga yo'naltirilib, ijrosi bo'yicha muddatlar belgilab berildi. Shuningdek, uchrashuv davomida bugungi kunda yurtimizda bo'layotgan muhim o'zgarishlar to'g'risida ham so'z yuritilib, aholiga bosh qomusimiz Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha olib borilayotgan jarayonlar haqida ham ma'lumotlar berildi. Fuqarolarga o'z kelajaklari uchun befarq bo'lmagan holda yurtimizda bo'layotgan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib, Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarishlarga barcha o'z takliflarini berishi mumkinligi ma'lum qilinib, taklif berish tartiblari bo'yicha ham tushuntirishlar berib o'tildi.

2022-06-20 15:44:05